

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

JUMAYEV ORIFJON QILICHBOYEVICH

**EGA VAZIFASIDAGI AJRATILGAN BO‘LAKLARNING SINTAKTIK-
SEMANTIK VA KOMMUNIKATIV-STILISTIK XUSUSIYATLARI
(NEMIS TILI MISOLIDA)**

10.00.04 - Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Jumayev Orifjon Qilichboyevich

Ega vazifasidagi ajratilgan bo'laklarning sintaktik-semantik va kommunikativ-stilistik xususiyatlari (nemis tili misolida) 3

Жумаев Орифжон Киличбоевич

Семантико-синтаксические и коммуникативно-стилистические особенности обособленного подлежащего (на примере немецкого языка) 25

Jumayev Orifjon Kilichboyevich

Syntactic-semantic and communicative-stylistic features of separate parts in the possessive function (as an example of the German language) 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

JUMAYEV ORIFJON QILICHBOYEVICH

**EGA VAZIFASIDAGI AJRATILGAN BO‘LAKLARNING SINTAKTIK-
SEMANTIK VA KOMMUNIKATIV-STILISTIK XUSUSIYATLARI
(NEMIS TILI MISOLIDA)**

10.00.04 - Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2740 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdchti.uz hamda «Ziyonet» Axborot ta’lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Yaxshiyev Ashur Abdiyevich filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	Bushuy Tatyana Anatolyevna filologiya fanlari doktori, professor Ro‘ziyev Yarash Bozorovich filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140104, O‘zbekiston, Samarqand, Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, O‘zbekiston, Samarqand, Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «___» _____dagi №___ raqamli reestr bayonnomasi).

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

G‘.Q.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

Sh.S. Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida struktur-funksional sintaksis sohasida olib borilgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor tilni tizimli ravishda o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotlar doirasida ajratilgan gap bo'laklari murakkab tuzilishdagi gapning tarkibiy qismi, murakkab gap sintaksisining predmetlaridan biri sifatida o'rganilmoqda. Masalaga bunday yondashuv, nemis tilida, shuningdek, german tilshunosligida sintaksisning yangi bir sohasi, ya'ni "murakkab gap sintaksisi" bo'limining shakllanishiga va ushbu sohaning grammatika darsliklarida o'zining munosib o'rnini egallashiga zamin yaratadi.

Nemis tili sintaksisida o'ziga xos mazmuniy mustaqillikka, ohangga va mantiqiy urg'uga ega bo'lib, boshqa gap bo'laklaridan tinish belgilar yordamida ajralib turuvchi, shuningdek, matn tarkibida sintaktik, semantik, stilistik va kommunikativ vazifalar bajarib keluvchi ajratilgan gap bo'laklarining hozirgi kungacha yetarlicha va chuqur o'rganilmaganligi va tahlil qilinmaganligi bilan belgilanadi.

Hozirgi zamon dunyo tilshunosligida grammatik hodisalar, ularning struktur tuzilishi, mazmuniy-semantik xususiyatlari va kommunikativ-stilistik mohiyati tahliliga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ayniqsa gap tarkibini murakkablashtiruvchi birliklarning sintaktik maqomini belgilash va ularning matn doirasida faollashivuni ta'minlovchi omillarni aniqlash borasida olib borilayotgan izlanishlar ahamiyatlidir. Shuning bilan birgalikda, ajratilgan gap bo'laklari mavjud bo'lgan sintaktik tuzilmalarning tarkibi, ularning mazmuni ifodasidagi o'zni va bajaradigan pragmatik vazifasini batafsil yoritishga zarurat tug'iladi.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligida xorijiy tillarni zamonaviy tamoyillar asosida tadqiq etish, jahon ilm-fani ilg'or g'oyalarini ijodiy o'zlashtirish tajribasi shakllandi. Shu jumladan, kasbiy muloqot faoliyatida ixtisoslik matnlaridan foydalanish samarasi uchun ahamiyatli bo'lgan sosiolingvistik va pragmalingvistik tamoyillarni milliy madaniyatimizga qadimdan targ'ib qilib kelingan muomala odobi qoidalari bilan uyg'unlashtirishga harakat qilinmoqda. Shunga binoan, "O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"ligi tilshunoslik sohasidagi izlanishlarning nazariy va amaliy jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarilishi lozimligini ko'rsatadi. O'zbekistonda turli mamlakatlar bilan har tomonlama hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilishi xorijiy tillar tadqiqi va ta'limini ma'lum bir til sohiblarining madaniyati, mentaliteti, ijtimoiy munosabatlari va dunyoqarashidagi o'ziga xoslik asosida tashkil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, "fan va ma'rifat nafaqat yoshlarning, balki butun jamiyatimizning ham intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishda birinchi darajali ahamiyatga ega"¹. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston tilshunosligi uchun xorijiy tillarda mavjud bo'lgan faktlarni milliy til me'yorlariga tayangan holda tahlil qilishda, ayniqsa, xorijiy tillar sintaksisi va

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaati. 28.01.2020 yil. Internet havola: <https://uza.uz/ru/politics/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyev-25-01-2020>.

stilistikasi masalalarini to'laqonli yoritishda yangicha tahlil metodlari asosida yondashish zarurati dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

2019- yil 8- oktabrdagi PF-5847- son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020- yil 29- apreldagi PF-5987- son "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi PF-60- son «2022-2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017- yil 20- apreldagi PQ-2909- son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017- yil 27- iyuldagi PQ-3151- son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021- yil 19- maydagi PQ-5117- son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ajratilgan bo'laklarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolar, jumladan, ushbu gap bo'laklari murakkab gapning tarkibiy qismi ekanligi; ularning boshqa bo'laklarga nisbatan ikki yoqlama ma'no munosabatlari; mazkur gap bo'laklarini tasniflash va ularning struktural tiplarga ajratilishi; gap bo'laklarining ajratilgan komponentlar vazifasida kelishida so'z tartibining roli va boshqa masalalar hozirgi kungacha nemis tili sintaksisining dolzarb va murakkab masalalaridan bo'lib qolmoqda.

Mazkur masala bo'yicha dunyoning ko'plab tillarida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, rus tilida L.V.Zaxarova, I.P.Raspopov, Ye.S.Skoblikova;² ingliz tilida A.S.Agelyarova, K.Ya.Petrovskaya, E.S.Dudorova;³ boshqird tilida N.K.Dmitriyev;⁴ ozarbayjon tilida I.Dj.Nazarov;⁵

² Захарова Л. В. Обособленные второстепенные члены предложения со значением уточнения в современном русском литературном языке: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Ставрополь, 2008. – С.24, Расповов И. П. К вопросу об обособлении // Очерки по теории синтаксиса. Изд-е 2-е. – М., УРСС, 2009. – С.132–147, Скобликова Е.С. Современный русский язык. Синтаксис простого предложения. – М.: Изд-во «Просвещение», 1979. – С.236.

³ Агельярова А.С. Обособленный член предложения в информационном строке текста (на материале англоязычной художественной прозы): Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – М., 2017. – С.20, Петровская К.Я. Обособленные второстепенные члены предложения в современном английском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1953. – С.18, Дудорова Э.С. Коммуникативно-прагматический аспект обособленных компонентов предложения и их семантико-синтаксические свойства: на материале обособленных определений, обстоятельств и косвенных дополнений в английском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – СПб., 1994. – С.48.

fransuz tilida G.N.Skepskaya, I.N.Yumatova, P.R.Parchiyeva;⁶ nemis tilida M.P.Savsova, L.V.Fadeyeva, S.L.Faynshteyn, O.P.Karkoshko, I.V.Shishkina, H.Altmann, L.Hoffmann⁷ kabi olimlar izlanishlar olib borgan. Ular asosan, ajratilgan bo‘laklarning ohangiga, sintaktik xususiyatlariga, ularning grammatik qurilishlariga o‘z diqqat-e’tiborlarini qaratganlar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, eganing ajratilgan bo‘lak sifatida bajaradigan funksiyalari hozirgi kungacha maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa ushbu tadqiqot mavzusining monografik planda o‘rganilishini taqazo qiladi.

Mamlakatimiz olimlari Sh.S.Safarov, D.Ashurova, B.T.Tursunov, S.A.Ziyayeva, M.B.Begmatov, B.M.Axmedova va A.Mambetniyozovalar⁸ o‘z ilmiy tadqiqot ishlarini mazkur sohaga bag‘ishlagan.

Ajratilgan gap bo‘laklarining ayrim struktural tiplari to‘g‘risida germanshunos olimlarning fikr-mulohazalari mavjudligiga qaramasdan, nemis tilida ushbu sohani o‘rganishga bag‘ishlangan biror-bir ilmiy-tadqiqot ishida ajratilgan gap bo‘laklari murakkab gap sintaksisining predmetlaridan biri sifatida o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.

⁴ Дмитриев Н.К. Грамматика башкирского языка. -М., Л.,1948. - С.154.

⁵ Назаров Изаддин Джаны оглы. О средствах связи компонентов сложносочиненных предложений усложненного типа (Вводные слова и частицы) // Ученые записки АТУ, Серия язык и литература, 1974, №4. – С.18.

⁶ Скепская Г.Н. К проблеме обособленных членов в современном французском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 1968. – С.16, Юматова И. Н. О семантико–синтаксической функции обособленного определения во французском языке// Ученые записки ЛГУ №350. Серия филологических наук, вып.75. Романское языкознание. 1972, – С.166–177., Парчиева П.Р. Обособление членов предложения в современном французском языке как явление сверхфразового уровня: Автореф. дисс.... канд. филол. наук: – М., 1986. – С.27.

⁷ Савцова М.П. Приложение и его роль в современном немецком языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Киев, 1956. – С. 16, Фадеева Л. В. Обособление и обособленные члены предложения в современном немецком языке // Гуманитарные исследования, – М., 2011. – № 2(38). – С.110–114., Файнштейн С.Л. Обособление имени прилагательного и причастия в немецком языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1954. – С.14., Каркошко О.П. Парцелляция: структура, семантика, функция (на материале русского и немецкого языков): Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. – Майкоп, 2011. – С.26, Шишкина И. В. Особенности функционирования обособленных эллиптических союзных конструкций в современном немецком языке. – Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Тамбов, 2004. – С.28, Altmann H. Formen der Herausstellung im Deutschen: Rechtsversetzung, Linksversetzung, Freies Thema und verwandte Konstruktionen // Linguistische Arbeiten. -Tübingen: Niemeyer. 1981.-S.106, Hoffmann L. Zur aktuellen Satzgliederung im wissenschaftlichen Fachtext // Sprache in Wissenschaft und Technik. – Leipzig: VEB Verlag Enzyklopädie, 1978. – S.54–64.

⁸ Савцова М.П. Приложение и его роль в современном немецком языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Киев, 1956. – С.16, Фадеева Л. В. Обособление и обособленные члены предложения в современном немецком языке // Гуманитарные исследования, – М., 2011. – № 2(38). – С.110–114., Файнштейн С.Л. Обособление имени прилагательного и причастия в немецком языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1954. – С.14., Каркошко О.П. Парцелляция: структура, семантика, функция (на материале русского и немецкого языков): Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. – Майкоп, 2011. – С.26, Шишкина И. В. Особенности функционирования обособленных эллиптических союзных конструкций в современном немецком языке. – Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Тамбов, 2004. – С.28, Altmann H. Formen der Herausstellung im Deutschen: Rechtsversetzung, Linksversetzung, Freies Thema und verwandte Konstruktionen // Linguistische Arbeiten. -Tübingen: Niemeyer. 1981.-S.106, Hoffmann L. Zur aktuellen Satzgliederung im wissenschaftlichen Fachtext // Sprache in Wissenschaft und Technik. – Leipzig: VEB Verlag Enzyklopädie, 1978. – S.54–64.

Dissertatsiya ishi Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, «Matn lingvistikasi va unga xos kategorial belgilar» mavzusidagi ilmiy yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Nemis tilidagi ega vazifasini bajaradigan ajratilgan boʻlaklarining sodda gaplarni murakkab gaplarga aylantirish xususiyatlarini sintaktik, semantik, stilistik va kommunikativ aspektlarini sintaksem usullardan foydalanib yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ega shaklidagi ajratilgan gap boʻlaklarining matn doirasida yoyilish darajasiga aniqlik kiritish orqali ushbu hodisaga taʼsir koʻrsatuvchi omillarni belgilash va ularga bevosita tobe boʻlgan maʼlum boʻlaklar orasidagi aloqa vositalarini aniqlash;

ega shaklidagi sintaktik qurilmalarning kengayish usullari hamda ularga xos boʻlgan mono– va polifunksionallikni ochib berish;

ega shaklidagi ajratilgan gap boʻlaklarining stilistik va kommunikativ vazifalarini izohlash;

ajratilgan gap boʻlaklari tarkibining zaruriy va ixtiyoriy xarakterdagi komponentlarni tahlil qilish.

Tadqiqotning obʻyektini gapning ajratilgan boʻlaklari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini ega shaklida ifodalanib keluvchi ajratilgan boʻlakli gaplarning sintaktik, semantik, va kommunikativ xususiyatlarini izohlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada umumiy va maxsus tadqiq usullari: tavsifiy tahlil, kontekst tahlili, kognitiv-konseptual tahlil, freymli modellash, semantik-stilistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ega shaklidagi ajratilgan gap boʻlaklarining matn doirasida yoyilish darajasiga aniqlik kiritilgan va ushbu boʻlaklar ajralishiga taʼsir koʻrsatuvchi omillar aniqlanib, ularga bevosita tobe boʻlgan maʼlum boʻlaklar orasidagi aloqa vositalarining lingvistik asoslari isbotlangan;

ega shaklidagi sintaktik qurilmalarning kengayish usullari, semantikasi va strukturasi, ularga xos boʻlgan xususiyatlari hamda ularning mono – va polifunksionallik holatlari ochib berilgan, va ega shaklidagi ajratilgan gap boʻlaklarining matn doirasida yoyilish darajasiga aniqlik kiritilgan;

ajratilgan gap boʻlaklari oʻziga xos sintaktik kategoriyani hosil qilishiga koʻra ular ishtirokida hosil boʻlgan tuzilmalarni murakkab tuzilishdagi sodda gapning struktur tiplari sifatida izohlash haqidagi xulosalar, ega shaklidagi ajratilgan gap boʻlaklarining tobe komponentiga nisbatan pozitsiyasi aniqlangan hamda ularning stilistik, semantik va kommunikativ-pragmatik vazifalari dalillangan;

ega vazifasini bajaradigan ajratilgan gap boʻlaklari tarkibining zaruriy, ixtiyoriy xarakterdagi komponentlari, ega shaklidagi ajratilgan gap boʻlaklari hamda ularga tobe boʻlgan komponentlarga nisbatan qoʻllanilayotgan tushunchalar bayon etilgan va ular stilistik va kommunikativ jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot materiallari va natijalari Samarqand davlat chet tillar instituti 2- kurs magistratura talabalariga «Lingvistika (nemis tili)» mutaxassisligi bo'yicha «Nazariy grammatikaning dolzarb muammolari» va 4- kurs bakalavr talabalariga "O'rganilayotgan til nazariy aspektlari" fanlarini o'tish jarayonida ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlarni tashkil qilishda foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, muammoning aniq shakllantirilgani, to'plangan materiallar tahlilining ilmiy va metodologik jihatdan asoslanganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, chiqarilgan xulosalarning qat'iyligi, tadqiq materialining ishonchli manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotning xulosalari nazariy grammatika, stilistika fanlari sohasida mavjud bo'lgan bo'limlarni nazariy tomondan boyitishga, rivojlantirishga xizmat qilishi, shuningdek, sintaksisning yangi bir mustaqil bo'limining shakllanishiga asos bo'lishi hamda gap nazariyasini ma'lum darajada rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Nemis tili grammatikasi", "Umumiy tilshunoslik", "Stilistika" fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda, zamonaviy tilshunoslik, matn tilshunosligi, lingvistik tahlil sohalari bo'yicha maxsus seminarlarni tashkil qilishda, yangi ko'rinishdagi o'quv adabiyotlari, ma'ruza matnlarini yaratishda, turli tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligida aks etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nemis tili materiallari asosida eganing ajratilgan bo'lak sifatida bajarib keladigan funksiyalari tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida gap bo'laklarining ajratilishiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanganligi, ega shaklidagi ajratilgan gap bo'laklarining matn doirasida yoyilish darajasiga aniqlik kiritilganligi va egani ajratib tahlil qilish metodlarining o'rganilishi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilishi 2018-2020-yillarga mo'ljallangan BV-Atex-2018 (143) raqamli "Ko'zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o'qish va yozish imkonini beruvchi o'zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta'minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022- yil 25- noyabrdagi № 01-3218- son ma'lumotnomasi). Natijada, ajratilgan gap bo'laklariga bevosita tobe bo'lgan ma'lum bo'laklar orasidagi aloqa vositalarining lingvistik asoslari isbotlangan;

gapning ajratilgan bo'laklari semantikasi va strukturasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlili ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etishi bo'yicha xulosalar Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: "Computational Linguistics at Central Asian universities" grant loyihasi doirasida tadqiqotning

ilmiy natijalari, amaliy taklif va tavsiyalaridan foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 15-iyuldagi № 2012/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, ajratilgan gap bo'laklariga xos bo'lgan xususiyatlari tahlilining ilmiy-nazariy ahamiyati hamda mono – va polifunksionallik holatlari ochib berilgan;

ajratilgan gap bo'laklari o'ziga xos sintaktik kategoriyani hosil qilishini e'tiborga olib, ular ishtirokida hosil bo'lgan tuzilmalarni murakkab tuzilishdagi sodda gapning struktur tiplari sifatida izohlash haqidagi xulosalar Samarqand davlat chet tillar instituti "60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (nemis tili)", bakalavriat ta'lim yo'nalishi va "5A120100-Lingvistika (nemis tili)" magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari malaka talablariga singdirilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 15-iyuldagi № 2014/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, ega orqali ifodalangan ajratilgan gap bo'laklarining gap tarkibini murakkablashtiruvchi, semantik-sintaktik ma'nosini konkretlashtiruvchi xususiyatlari tahlili amalga oshirilgan va ega orqali ifodalangan ajratilgan bo'laklarning o'ziga xos xususiyatlarining muloqot jarayonida foydalanilishi va o'rganilishida ishonchli manba bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

nemis tilida ega vazifasini bajaradigan ajratilgan gap bo'laklari tarkibining zaruriy va ixtiyoriy xarakterdagi komponentlar va ega shaklidagi ajratilgan gap bo'laklarining stilistik va kommunikativ jihatdan majmuaviy tahlilining ilmiy xulosalaridan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining "Assalom Samarqand", "Ta'lim va taraqqiyot" kabi o'quv-ma'rifiy hamda ilmiy-ommaviy teleko'rsatuvlarida (2022-yil avgust-sentyabr oylarida) foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022 yil 25- noyabrdagi № 01-12/446- son ma'lumotnomasi). Natijada, ega shaklidagi ajratilgan gap bo'laklarining stilistik va kommunikativ jihatdan majmuaviy tahlili ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 7 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik Dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ishda foydalanilgan shartli belgilar va qisqartmalar izohidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 131 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish. Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga

mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilinganligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jahon tilshunosligida ajratilgan gap bo'laklarining tadqiqiga doir”** deb nomlanib, bir qator tilshunos olimlarning ajratish hodisasi va u bilan bog'liq boshqa sintaktik hodisalarni o'rganish sohasidagi uzoq yillar davomida olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan atroflicha tanishish, tahlil qilish va ularga nisbatan munosabatlar bildirishga bag'ishlanadi.

Ajratilgan gap bo'laklari ham xuddi boshqa sintaktik va stilistik hodisalar kabi tilda qadimdan qo'llanib kelinadi va ushbu sintaktik kategoriya o'zining tarixiy tadrijiy taraqqiyot yo'liga ega. Ajratilgan bo'laklarning qadimiy hodisa ekanligi, hatto ularning u yoki bu tilda bitilgan yozma yodgorliklarida uchrab turishi to'g'risidagi fikr-mulohazalar ham bir-biridan farq qiladi. Mazkur holatni isbotlash maqsadida ba'zi tilshunos olimlarning ushbu sohaga oid fikrlarini keltirishni o'rinli deb bilamiz. Ayrim olimlar ajratilgan gap bo'laklari tillarning o'zaro ta'siri ostida yaqinda paydo bo'lgan deyishadi. Masalan, N.K.Dmitriyev boshqird tilida ajratilgan gap bo'laklarini o'rganib shunday xulosaga keladi: “Ajratish hodisasi, ya'ni ajratilgan gap bo'laklarining matn doirasida qo'llanilishi so'nggi davrda bo'lgan hodisadir, ya'ni ular boshqird tilida rus tili ta'sirida yuzaga kelgan”⁹. Biroq gap bo'laklarining ajratilishi boshqa til ta'sirida yuzaga kelgan emas, aksincha bir tilda o'rganilgan hodisa boshqa tilda ham mavjud bo'lishi mumkin xolos. Boshqacha qilib aytganda, agarda ajratilgan gap bo'laklari dastavval rus tilida o'rganilgan bo'lsa, keyinchalik boshqa tillarda ham o'rganila boshlagan. Shuning uchun ham ajratilgan gap bo'laklari boshqird tilida ham yaqindagina sodir bo'lgan hodisa emas, balki turkiy tillarning yozma yodgorliklarida uchraydigan hodisa ekanligi isbotlangan.

G.Ya.Gaylums birinchilardan bo'lib, mavjud bo'lgan “o'zidan oldingi ma'lum bo'lakni izohlagan bo'lak ajratilgan gap bo'laklari hisoblanadi” degan ta'rifga ilmiy tus beradi, ya'ni ushbu ta'rifning lingvistik mohiyatini aniqlaydi, kengaytiradi. Uning fikricha, ajratiladigan gap bo'laklari mazmuniy mustaqillikka, o'ziga xos ohangga ega bo'lgan va boshqa gap bo'laklaridan o'ziga xos to'xtam bilan, yozma nutqda esa tegishli tinish belgilari yordamida ajralib turuvchi gap bo'laklaridir”¹⁰.

Muallifning ushbu ta'rifida gap bo'laklarining ajratilishiga ta'sir etuvchi eng muhim omil o'z ifodasini topadi, bu esa - mazmuniy mustaqillik va mantiqiy urg'udir. Muallif tomonidan taklif etilgan boshqa omillar, ya'ni intonasiya, tinish belgilari, inversiya kabilar yuqorida bayon etilgan omillarning oddiy bir takrorlanishi emas, aksincha ularni ma'lum darajada konkretlashtirishga va to'ldirishga xizmat qiladi. Ajratilgan bo'laklarga xos bo'lgan bunday mazmuniy mustaqillikning o'ziga xos bo'lgan xususiyati shundan iboratki, agarda ajratilgan bo'laklar gap tarkibidan tushirilib qoldirilsa ham, ushbu gapga hech qanday

⁹ Дмитриев Н.К. Грамматика башкирского языка. -М., Л.,1948. - С.233.

¹⁰ Гайлумс К.Я. Обособленное определение в современном латышском литературном языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Рига, 1956. - С.5.

struktural zarar yetkazilmaydi, u grammatik jihatdan tugallikni saqlab qolaveradi, faqatgina ajratish prinsipining faoliyati tugatiladi xolos.

Aytish joizki, biz o'rganib chiqqan ilmiy-tadqiqot ishlarida ajratilgan gap bo'laklari murakkab gap sintaksisini tashkil etuvchi alohida hodisa ekanligi masalasi o'z yechimini topmagan. Ajratilgan gap bo'laklariga tilshunoslar har tomonlama izoh bergan, biroq tarkibida ajratilgan bo'lak mavjud sodda gap sodda gapligicha, qo'shma gap qo'shma gapligicha tahlil qilingan, ularga nisbatan murakkab gap sintaksisi nuqtai nazaridan yondashilmagan.

Ajratilgan gap bo'laklari boshqa germanshunos olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida boshqacharoq nomlanishga ega bo'ladi. Masalan, nemis tilshunos olimi Valter Yung o'zining "Grammatik der deutschen Sprache" nomli darsligida gapning ajratilgan bo'lakli konstruksiyalariga nisbatan "*Satzbruch*" terminini ishlatgan, ushbu termin "gapning bo'lingan", "uzilgan", "ajralib qolgan qismi" kabi ma'nolarni anglatadi. Muallif tomonidan keltirilgan quyidagi misol haqiqatdan ham ajratilgan bo'lakni gapning "uzilgan", "bo'lingan", "ajralgan" qismi ekanligini ta'kidlaydi.

*"Er wollte kämpfen gegen den Schlaf, der ihn von neuem überwältigte, ein ungueter Schlaf"*¹¹.

V.Yung tomonidan keltirilgan yuqoridagi misol tarkibida ajratilgan bo'lak vazifasida keluvchi *ein ungueter Schlaf* tuzilmasi shaklidagi sintaktik qurilma, "*Satzbruch*" terminining mazmuniga mos keladi. Haqiqatdan ham ajratilgan bo'lak vazifasidagi – *ein ungueter Schlaf* – xuddi gap tarkibidan uzilib, bo'linib, ajralib qolgan komponentga o'xshaydi. Biroq bu masalaning bir tomoni. Uning gap tarkibidan alohida ajralib turishi oddiy bir hol emas, aksincha uning tarkibida shu kabi ajratilgan bo'laklarga xos bo'lgan ko'pgina xususiyatlar takrorlanadi. Natijada, ajratilgan bo'laklar gap tarkibida xilma-xil vazifalarni bajaradi, ulardan biri sodda va qo'shma gaplarning strukturasini murakkablashtirishdir.

Yirik tilshunos German Paul "Grammatik der deutschen Sprache" nomli darsligida ajratilgan bo'laklarga nisbatan "*Satzapposition*" terminini kiritadi.

G.Paul taklif qilgan ushbu terminini quyidagi misol tahlili orqali izohlab berishga harakat qilamiz:

*Dagegen zeigte uns der Barsteward gegen Mittag eine Schar Vögel, Möwen, die sich nicht weit vom Schiff auf Wellen schaukelten: ein Zeichen, daß wir dem Lande nicht mehr allzu fern sind*¹².

Ushbu keltirilgan misol ajratilgan bo'laklarga nisbatan qo'llanilgan terminlarning mazmunini oydinlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki ajratish hodisasining hozirgi kungacha tekshirish ob'yektiga aylanmagan tomonini ham ochib berishga asos bo'lmoqda. Ajratilgan bo'lakli konstruksiyalarning hozirgi kungacha germanshunoslarning nazaridan chetda qolgan sohasi nimadan iborat ekanligini yuqoridagi misolning tahliliga tayangan holda tushuntirib berishga harakat qilamiz: bu yerda – *Möwen* – so'zi – *eine Schar Vögel* – so'z birikmasiga nisbatan ajratilgan bo'lak vazifasida kelsa, *die sich nicht weit vom Schiff auf*

¹¹ Jung W. Grammatik der deutschen Sprache. Leipzig. - 1966. - S.119.

¹² Mann. T. Gesammelte Werke, zweiter Band, 1966. - S.561

Wellen schaukelten – shaklidagi aniqlovchili ergash gap esa – *Möwen* – ga nisbatan ajratilgan gap (izohlovchili gap) vazifasida keladi. Natijada – *Möwen* – ajratilgan bo‘lakli komponentdan izohlanayotgan komponentga o‘tadi. Xuddi shunday holatni – *ein Zeichen, daß wir dem Lande nicht mehr allzu fern sind* – gapi tarkibida ham kuzatish mumkin. Jumladan, keltirilgan misolda namoyish etilgan murakkab gap tarkibidagi ajratilgan bo‘laklarning polifunksionnaligini izohlab beramiz: – *Möwen* – komponenti – *eine Schar Vögel* – shaklidagi izohlanayotgan gap bo‘lagiga nisbatan ajratilgan bo‘lak vazifasida kelsa, - *die sich nicht weit vom Schiff auf Wellen schaukelten* – izohlovchili konstruksiyaga nisbatan izohlanayotgan komponent vazifasida kelmoqda. Natijada, *Möwen* komponenti ikki xil vazifada kelib, polifunksional xarakterga ega bo‘ladi.

Ajratilgan bo‘laklar tomonidan izohlanayotgan komponentlarda ifodalanayotgan qo‘shimcha ma’no bu oddiy bir ma’no emas, aksincha, bunday ma’nolar ikki yoqlamaligi bilan murakkab xarakterga ega. Shunga muvofiq, ajratilgan sintaktik qurilmalar ikki tomonlama ma’no munosabatiga kirishadi. Avvalo, ular oddiy gap bo‘lagini izohlaydi, to‘ldiradi, konkretlashtiradi, keyinchalik esa gapning kesimi orqali butun gap mazmuni bilan mazmuniy munosabatga kirishadi. Natijada, ajratilgan bo‘laklar tomonidan ifodalanayotgan qo‘shimcha ma’no alohida ta’kidlanadi, ba’zan esa haddan tashqari bo‘rttirib ko‘rsatiladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, biror-bir gap bo‘lagining ajratilishi uchun alohida shart-sharoit bo‘lishi shart emas, chunki gap bo‘lagining ajratilishi gapning sintaktik qurilishi yoki ajratilgan bo‘laklarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqmaydi, aksincha u yoki bu muallif individual uslubining mahsuli bo‘lib, ularning yoyilish darajasi yozuvchining uslubi bilan belgilanadi.

Ikkinchi bob “**Sodda gaplarni murakkab gapga aylantiruvchi sintaktik qurilmalar**” deb nomlanadi va ajratilgan bo‘lakli sintaktik konstruksiyalar tarkibida ikkita kommunikativ markaz emas, balki semantik sherikka birikib kelishiga qarab aniqlanishi lozimligi, ajratilgan gap bo‘laklarining stilistik vosita sifatida qo‘llanish tahliliga bag‘ishlanadi.

Ajratilgan gap bo‘laklarining tayanch komponentlarini nomlash uchun tadqiqotchilar tomonidan xilma-xil terminologik tushunchalar ishlatiladi. Biroq biz ulardan “semantik sherik” tushunchasini tanladik: birinchidan, bu tushuncha tarkibida mazmuniy, ma’noviy munosabat ifoda topadi, aynan ana shu munosabat ajratilgan gap bo‘laklarining tabiatiga mos keladi, chunki semantik sherik talabi bilan “qo‘shimcha” mazmun, ma’no, izoh yuzaga keladi; ikkinchidan ushbu termin boshqa xuddi shunday terminlardan qo‘llanishi jihatidan qulayroqdir.

Ajratilgan gap bo‘laklarining zaruriy semantik sherigini aniqlash maqsadida matnlar ustida kuzatuvlar olib bordik. Shu maqsadda biz B.Brextning “Dreigroschenroman”; L.Feyxtvangerning “Narrenweisheit”, “die häßliche Herzogin Margarete Maultasch”, “die Brüder Lautensak”; I.Harderning “Die Frau vom Ziegelhof”; V.Kayzerning “Sie nannten sie Anna”, “Anna und ihre Kinder”; R.Kraftning “Unruhiger Sommer” va A.Zegersning “Die Entscheidung” kabi yirik asarlarini o‘rganib chiqdik. O‘rganib chiqilgan asarlarning ko‘rsatishicha, ajratilgan gap bo‘laklari, **birinchidan**, muhim bir uslub vositasidir; **ikkinchidan**

ular xilma-xil struktur ko‘rinishga ega; **uchinchidan**, ajratilgan gap bo‘laklari vazifasida faqat ikkinchi darajali bo‘laklarga emas, shuningdek bosh bo‘laklar ham, ayrim gap turlari ham kela olishi mumkin; **to‘rtinchidan**, ajratilgan gap bo‘laklari sodda gaplar tarkibidagina emas, shuningdek qo‘shma gaplar tarkibida ham, murakkab sintaktik butunliklar tarkibida ham kelar ekan; beshinchidan, ajratilgan gap bo‘laklarining matn doirasida yoyilish darajasi bir xil emas.

O‘rganilgan matnlarga tayangan holda shu narsani alohida ta’kidlash lozimki, semantik sherik va ajratilgan gap bo‘laklari vazifasida faqat olmosh va ot shaklida ifodalanib kelgan ega kelishi mumkin. Ushbu holatni transformasiya metodining tushirib qoldirish usulidan foydalangan holda isbotlashga harakat qilamiz.

Buning uchun ega shaklida ifodalanib kelgan ajratilgan gap bo‘laklariga xos bo‘lgan sintaktik, semantik xususiyatlarni izohlab beramiz.

I. Wir olmoshi semantik sherik vazifasida:

1) *Wir, Martchen und ich, freuen uns* (Harder. I. Die Frau vom Ziegelhof, S. 199).

2) *Wir, Meiner und ich, würden uns freuen* (Harder. I. Die Frau vom Ziegelhof, S. 302).

3) *Wir, deine Frau und ich, helfen uns gegenseitig* (Harder. I. Die Frau vom Ziegelhof, S. 248).

4) *Wir hatten getrunken, er und ich* (Feuchtwanger L. Die häßliche Herzogin Margarete Maultasch, S. 228).

Ko‘rinib turibdiki, tarkibida ajratilgan bo‘laklar mavjud bo‘lgan gaplar o‘ziga xos sintaktik xususiyatlari bilan sodda gaplardan farq qiladi. Endi ana shu xususiyatlarni keltirilgan misollar tahlilida izohlab beramiz. Ajratilgan bo‘laklar, o‘z tabiatiga ko‘ra sodda gaplarni tashkil etuvchi xuddi shunday gap bo‘laklarining boshqa bir shakli, ularning ajratilgan turi emas. Albatta, ajratilgan bo‘laklar shaklan gap bo‘laklariga o‘xshaydi. Ammo ular izohlanayotgan bo‘lakka nisbatan yangicha sifat kasb etadi. Ularga xos bo‘lgan yangicha sifat, yangicha tabiat bu ularning o‘ziga xos mazmuniy mustaqillikka, ohangga, mantiqiy urg‘uga ega bo‘lishidir.

Ajratilgan gap bo‘laklari o‘zlari bevosita izohlayotgan komponentlariga nisbatan qo‘shimcha ma’no ifodalab keladi, ya’ni uning mazmunini aniqlaydi, konkretlashtiradi, izohlaydi, natijada mavhum narsa oydinlashadi, noma’lumi konkretlashtiriladi. Keltirilgan misollar tarkibida semantik sherik vazifasida *Wir* olmoshi kelgan bo‘lsada, biroq uning mazmunini konkretlashtirishda turli xil ko‘rinishga ega bo‘lgan ajratilgan gap bo‘laklari ishtirok etadi.

Tarkibida ajratilgan bo‘laklarga ega bo‘lgan bunday sintaktik qurilmalarni murakkab gap sifatida tahlil qilmoq zarur. Chunki ajratilgan bo‘lakli bunday gaplar mazmunan va ohangdagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan murakkab fikrni ifodalaydi. Murakkab fikrni voqelantiruvchi bu xil sintaktik qurilma sodda gap bo‘lmaydi, chunki uning tarkibida asosiy predikativ birlikdan tashqari, yarim predikativ mazmunga ega bo‘lgan ajratilgan gap bo‘laklari bor. Shuning uchun ham bunday gaplarni sodda gap bilan qo‘shma gap orasida turuvchi murakkab gap turi deb izohlash maqsadga muvofiqdir.

Ajratilgan gap bo‘laklariga xos bo‘lgan bunday polifunksionallik ajratilgan qurilmalar tabiatiga xos bo‘lgan yana bir xususiyatning paydo bo‘lishiga sabab

bo'ladi, ya'ni polifunksionallik tufayli ajratilgan bo'laklar semantik sherik bilan parallel yoki ketma-ket birikishi mumkin. Ajratilgan bo'laklarga xos bo'lgan bunday xususiyatlarni boshqa misollar tahlilida ham kuzatish mumkin. Qiyoslang:

II. *Sie* olmoshi (ikki xil variantda birlikda va ko'plikda) semantik sherik vazifasida:

1) *Sie*, *Anna*, hat Oskar aufgegeben (Feuchtwanger. L. Die Brüder Lautensack, S. 256).

2) *Sie*, Marie, hat bisher nichts für ihr kommendes Enkelkind getan (Harder. I. Die Frau vom Ziegelhof, S. 169).

3) *Sie* sprach dort mit ihrer Freundin Hildegard Degler, *Toms' Sekretärin* (Seghers A. Die Entscheidung, S. 362).

Yuqorida keltirilgan misollarda namoyish etilgan ega shaklida keluvchi ajratilgan gap bo'laklariga xos bo'lgan sintaktik va semantik xususiyatlarni oldingi misollardagi xuddi shunday ajratilgan gap bo'laklariga xos bo'lgan xususiyatlarga qiyoslasak, ularning ko'p jihatdan ma'lum darajada o'xshashligi ko'rinsa-da, biroq ayrim belgi xususiyatlari bilan farq qilishi ham ma'lum bo'ladi. Ular orasidagi farq shundan iboratki, ajratilgan gap bo'laklari oldida yoki undan so'ng muntazam ravishda "vergul" emas, shuningdek, ikki nuqta ham qo'yilishi mumkin.

Ajratilgan gap bo'laklari tomonidan ifodalanib kelayotgan mazmun o'ta salmoqliligi bilan alohida ajralib turadi, ya'ni ularning ma'no xususiyatlari hatto sodda va qo'shma gaplarning ma'no xususiyatlaridan ham ortiqroq va muhimroqday ko'rinadi.

Ajratilgan gap bo'laklari bu o'z tabiati bilan "qo'shib" yozish, "qo'shimcha" qilish kabi ma'nolarni anglatadi. Biroq ana shunday tabiatga ega bo'lgan sintaktik konstruksiyalar tarkibida nimanidir tushirilib qoldirilishi ham kuzatiladi. Bunday tushirib qoldirilish ajratilgan bo'lakning na strukturaviy xususiyatiga va na mazmuniy salmog'iga putur yetkazadi, aksincha bunday unsurlarning matn tarkibida bir marta kelishining o'zi ularning kerakli unsur ekanligini tasdiqlaydi.

Matnlar ustida olib borgan kuzatishlarimiz, semantik sheriklar sifatida faqat *wir*, *er*, *sie* kabi kishilik olmoshlarigagina emas, balki - *einer*, - *beide*, - *man*, - *einige*, - *alles*, - *keiner*, - *nichts* kabi ko'rsatish, noaniq va inkor xarakteriga ega bo'lgan olmoshlarning ham kelishini tasdiqlaydi. Bunday xarakterga ega bo'lgan olmoshlar yordamida keluvchi semantik sheriklar matnlarda unchalik keng darajada tarqalmagan bo'lsada, biroq ajratilgan bo'laklarning o'ziga xos strukturaviy guruhlarini yuzaga keltirishda xizmat qiladi.

Ajratilgan gap bo'laklariga xos bo'lgan bunday xususiyatlar, ular bilan semantik sheriklar orasidagi sintaktik aloqa vositalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada ajratilgan bo'laklar bilan semantik sheriklar oraliqidagi sintaktik aloqa turli xil yo'llar bilan amalga oshiriladi. Ular orasidagi sintaktik aloqalardan biri bu – konstruktiv aloqa vositasidir, ya'ni bunday aloqalar vositasi moslashuv, bitishuv, boshqaruv kabi xarakterga ega bo'ladi. Ajratilgan gap bo'laklari bilan semantik sheriklar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi bu – implitsit aloqa vositasidir. Implisit aloqa vositasining ko'rsatuvchi belgilaridan biri bu – murakkab gaplarning tashkil etishda ishtirok etuvchi komponentlarning o'zaro mazmuniy tobelik xususiyatidir.

Ajratilgan bo‘laklarga xos bo‘lgan sintaktik vazifalar ularning semantik vazifasi shakllanishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Ajratilgan gap bo‘laklari o‘zlari bevosita bog‘liq bo‘lgan, semantik sheriklarga, shuningdek, butun tayanch gap mazmuniga, yoki uning aniq bir komponentiga nisbatan qo‘shimcha ma’noni, ifodalab kelib, ularning mazmunini aniqlaydi, izohlaydi, reallashtiradi, rivojlantiradi, boyitadi, kengaytiradi.

Ajratilgan bo‘laklarning qo‘shimcha ma’nosi ularning kommunikativ vazifasiga zamin hosil qiladi va oqibatda kommunikativ birliklar o‘z tabiatiga ko‘ra yangi qo‘shimcha ma’no beruvchi komponentlarga aylanadi. Murakkab gap tarkibida ajratilgan bo‘laklarning ishtiroki tufayli, ba’zi bir ilmiy-tadqiqot ishlarida qayd etilganidek, ikkita emas, balki uchta, to‘rtta va hokazo kommunikativ markazlar hosil bo‘lishi mumkin, ulardan faqat bittasi tayanch gap tarkibida bo‘lsa, qolganlari esa ajratilgan bo‘laklar tarkibida bo‘ladi. Demak, ajratilgan gap bo‘laklari tomonidan semantik sherikka yoki butun gap mazmuniga nisbatan ifodalangan qo‘shimcha ma’no hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ya’ni ularning ma’no xususiyati V.G.Admonining ta’kidlashicha, ergash gaplarning ma’no xususiyatiga tenglashadi¹³.

Sodda gaplarning tarkibida kelib, ularni murakkab gapga aylantirishda ishtirok etuvchi ajratilgan gap bo‘laklari o‘z tabiatiga ko‘ra ikki xil yo‘l bilan ifodalanishi mumkin: birinchidan ich, du, er, sie, wir kabi kishilik, einer, beide, man, einige, alles, keiner, nichts kabi noaniq va gumon olmoshlari yordamida; ikkinchidan ot, turdosh va atoqli otlar yordamida.

Uchinchi bob **“Ega shaklidagi ajratilgan gap bo‘laklarining kommunikativ-stilistik vazifalari”** deb nomlanib, ajratilgan gap bo‘laklarini kommunikativ-stilistik vositalardan biri ekanligi, va ularning matn tarkibida yoyilish darajasini aniqlashga bag‘ishlangan.

Ajratilgan gap bo‘laklari bu – akademik G‘.Abdurahmonov ta’kidlaganidek, muhim uslubiy vositalardan biridir¹⁴. Shuning uchun ham ajratilgan gap bo‘laklari masalasi faqat sintaktik qatlam doirasidagina emas, balki stilistika, fonetika, til tarixi, nazariy grammatika, leksikologiya fanlari sohasida o‘rganilishi lozim.

Endi ana shu matn yordamida ajratilgan gap bo‘laklariga xos bo‘lgan stilistik vazifalarni quyidagi ikki aspekt doirasida izohlab berishga kirishamiz: 1) Ajratilgan gap bo‘laklarining matnda yoyilish darajasi va ularning semantik sheriklarga nisbatan tutgan pozitsiyalari; 2) Ajratilgan gap bo‘laklari murakkab fikri, sodda, ixcham, ta’sirli ifodalaydigan stilistik figuralardan biri ekanligi.

Matn sifatida biz bir qator mashhur nemis yozuvchilarining 8 ta yirik asarlarini tanladik. Quyidagi jadvalda sodda gaplarni murakkab gapga aylantiruvchi sintaktik konstruksiyalar tanlab olingan asarlar qayd etilib, ajratilgan gap bo‘laklariga xos bo‘lgan xususiyatlarni izohlab berishga harakat qildik.

¹³ Адмони В.Г. Введение в синтаксис современного немецкого языка. - М.: 1955. - С.219.

¹⁴ Абдурахимов Ф. Ўзбек тили грамматикаси.–Тошкент: Фан, 1996. - Б.47.

Ajratilgan gap bo‘laklarining asarlarda yoyilish darajasi

№	Yozuvchilar va ularning asarlari	Asarning hajmi	EAGBF	%	O‘t. AGBAF	%	TAGBF	%	DAGBF	%	HaGBF	%	Umumiy soni	%	%
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
1	B.Brecht. Dreigroschenroman	596	20:84	23,8	4:84	4,7	32:84	38	8:84	9,5	20:84	23,8	84: 596	14,0	99,8
2	L.Feuchtwanger. Narrenweisheit	442	77:191	40,3	11:191	5,7	45:191	23,5	17:191	8,9	41:191	21,4	191: 442	43,2	99,8
3	L.Feuchtwanger. Die häßliche Herzogin Margarete Maultasch	310	46:197	23,3	14:197	7,1	55:197	27,9	19:197	9,6	63:197	31,9	197: 310	63,5	99,8
4	L.Feuchtwanger. Die Brüder Sautensack	346	45:172	26,1	21:172	12,2	55:172	31,9	21:172	12,2	30:172	17,4	172: 346	49,7	99,8
5	L. Harder. die Frau vom Ziegelhof	348	32:105	30,4	11:105	10,4	37:105	35,2	-	-	25:105	23,8	105: 348	30,0	99,8
6	B. Kayser. Sie nannten sie Anna: Anna und ihre Kinder	624	25:137	18,2	20:137	14,6	62:137	45,2	10:137	7,3	20:137	14,6	137: 624	29,9	99,9
7	R. Kraft. Unruhiger Sommer	350	21:120	17,5	6:120	5,0	51:120	42,5	4:120	3,3	38:120	31,6	120: 350	34,2	99,9
8	A.Seghers. Die Entscheidung	483	49:180	27,2	11:180	6,1	64:180	35,7	8:180	4,4	48:180	26,6	180: 483	37,2	100
		3499	315		98		401		87		285		1186		

Keltirilgan jadvalga tayangan holda ajratilgan bo‘laklarning stilistik tahlilini amalga oshiramiz. Stilistik tahlil deganda biz ajratilgan gap bo‘laklarining ko‘rsatilgan asarlar hajmida foiz hisobida yoyilish darajasini tushunamiz. Masalan: ega shaklida ifodalanib kelgan ajratilgan gap bo‘laklarining tartib bo‘yicha 1-raqamli asarda yoyilish darajasi - 23,8 foizni; tartib bo‘yicha 2, 3, 4- raqamlarda berilgan asarlarda umumiy yoyilish darajasi – 29,9 foizni; 5- raqamdagi asarda – 30,4 foizni; tartib bo‘yicha 6-raqamli asarda – 18,2 foizni; tartib bo‘yicha 7-raqamli asarda – 17,5 foizni; tartib bo‘yicha 8-raqamli asarda – 27,2 foizni tashkil etadi.

Foizlarni bir-biriga qiyoslashdan oldin, biz Lion Feyxtvangerning uchala asari bo'yicha ega shaklidagi ajratilgan gap bo'laklarining o'rtacha yoyilish darajasini aniqlash maqsadida, quyidagi tartibda, ya'ni: $40,3+23,3+26,1=$ qo'shib chiqdik, uning natijasi 89,7 ga teng bo'ldi. Ushbu raqamni 89:3 bo'lish asosida uch asar bo'yicha ajratilgan gap bo'laklarining o'rtacha yoyilish darajasi – 29,9 foiz bo'lishini aniqladik. Shu tartibda asarlar bo'yicha to'plangan ajratilgan gap bo'laklarining yoyilish darajasini ko'rsatuvchi foizlarni bir-biriga qiyos qilish quyidagi natijalarni berdi: birinchi o'rin tartib bo'yicha 5- raqamli asarga; ikkinchi o'rin tartib bo'yicha 2, 3, 4- asarlarga; uchinchi o'rin tartib bo'yicha 8- asarga; to'rtinchi o'rin tartib bo'yicha 1- raqamli asarga va nihoyat beshinchi o'rin tartib bo'yicha 7- raqamli asarga tegishlidir. Ana shu tartibda ajratilgan gap bo'laklarining matn tarkibida yoyilish darajasini aniqlash qo'laylik tug'diradi. Shu asosida biz u yoki bu yozuvchining individual uslubi to'g'risida ma'lum darajada aniqroq ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin.

Ajratilgan gap bo'laklari ifodalanish usullari jihatidan ham har xil shakllarni olishi mumkin. Masalan:

1. *Wir hatten getrunken, er und ich* (Feuchtwanger. L. Die häßliche Herzogin Margarete Maultasch, S. 228).

2. *Wir zwei Mädels allein auf der Flucht, Eva und ich* (Feuchtwanger. L. Narrenweisheit, S. 255).

3. *Und vor allem glaubt an ihn die Alte, Anna Tirschenreuth, die Bildhauerin* (Feuchtwanger. L. Die Brüder Lautensack, S. 9).

4. *Über die Brücke kamen verschiedene Leute, Kinder und Sonntagspaare* (Seghers A. Die Entscheidung, S. 281).

5. *Es mochten sechzehn bis zwanzig Personen anwesend sein, die Herren im Frack, die Damen in Abendkleidern* (Feuchtwanger. L. Die Brüder Lautensack, S. 79).

6. *Vor dem Rathausportal warteten die Trauzeugen, Onkel Anton im Gut, Herr Weise im Gehrock* (Kayser. B. Sie nannten sie Anna. Anna und ihre Kinder, S. 235).

